

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATINING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI

U.A.Ismailov

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20774059>

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif tomonidan axborot texnologiyalari va raqamli tizimlardan foydalangan holda sodir etiladigan firibgarlik jinoyatining tushunchasi hamda o'ziga xos jinoyat-huquqiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Maqolada kiberfiribgarlik jinoyati tarkibining elementlari, xususan, obyektiv va subyektiv tomonlari an'anaviy firibgarlikdan farqli jihatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Muallif virtual makonda sodir etiladigan ushbu jinoyatning kvalifikatsiya qilish muammolari, qalbaki fishing saytlari va havola (silka)lar orqali fuqarolarning bank plastik kartalaridagi mablag'larini talon-toroj qilish usullariga to'xtalib o'tgan. Shuningdek, soha olimlarining ilmiy qarashlari o'rganilib, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kiberfiribgarlik, axborot texnologiyalari, bank plastik kartasi, fishing, raqamli mulk, aldov, ishonchni suiiste'mol qilish, kvalifikatsiya.

O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi va Jinoyat qonunchiligi jamiyatda inson, uning huquqlari, erkinliklari va xususiy mulk daxlsizligini eng oliy qadriyat sifatida kafolatlaydi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat va bank-moliya tizimlarining jadal rivojlanishi, aholining kundalik hayotida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishi ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda, virtual makonda mulkiy jinoyatchilikning yangi ko'rinishlari vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, plastik kartalardan masofadan turib pullarni g'ayriqonuniy o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan kiberfiribgarlik (kiber-fraud) jinoyatlari bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

O'zgar mulkini axborot texnologiyalari yordamida talon-toroj qilish ham o'z mohiyatiga ko'ra mulk huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi va uning predmeti nafaqat jismoniy ashyolar yoki naqd pullar, balki elektron hisobvaraqlaridagi virtual mablag'lar va raqamli mulkiy huquqlar ham hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi (Firibgarlik) normalarida ushbu jinoyatning kvalifikatsiya belgilari kengaytirilib, uning axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilishi og'irlashtiruvchi holat sifatida mustahkamlandi [1].

An'anaviy firibgarlik kabi, axborot texnologiyalari vositasidagi firibgarlikning ham asosi — jabrlanuvchini aldash yoki uning ishonchini suiiste'mol qilishga qaratilgan. Biroq, bu yerda aldov bevosita (yuzma-yuz) emas, balki kompyuter dasturlari, ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram) yoki soxta (fishing) veb-saytlar orqali amalga oshiriladi.

Jinoyat-huquqiy nuqtayi nazardan kiberfiribgarlik jinoyati tarkibini to'g'ri tahlil qilish uchun uning quyidagi o'ziga xos elementlariga e'tibor qaratish lozim:

Jinoyatning predmeti va obyekti: Obyekt — shaxsning mulkka bo'lgan qonuniy huquqlari hisoblansa, predmet — bank plastik kartalaridagi elektron pullar, kriptovalyutalar yoki elektron hamyonlardagi raqamli aktivlardir.

Obyektiv tomoni: Aybdor shaxs o'zini qaysidir bank xodimi, davlat tashkiloti vakili yoki onlayn-do'kon sotuvchisi sifatida tanishtirib (faol aldov), jabrlanuvchining bank kartasi maxfiy kodlarini (SMS-kod, parollarini) qo'lga kiritadi va pullarni elektron shaklda o'zlashtiradi.

Ilmiy adabiyotlarda kiberfiribgarlik tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. mutaxassislarining fikricha, *"Kiberfiribgarlik — virtual makonda jabrlanuvchining psixologik chalg'ishi yoki texnik savodsizligidan foydalanib, uning ixtiyoriy ravishda raqamli ma'lumotlarni berishiga erishish orqali mulkni egallashdir"* [2].

Professor M.X.Rustambayev o'z tadqiqotlarida firibgarlikning ushbu turi haqida to'xtalib, kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish orqali sodir etilgan talon-torajliklarni faqatgina firibgarlik sifatida emas, balki sharoitga qarab jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi [3].

Kvalifikatsiya qilish masalalari va jinoyatlar majmui

Amaliyotda kiberfiribgarlik ko'pincha boshqa jinoyatlar, xususan, qalbaki elektron hujjatlar yoki dasturlar yaratish bilan bog'liq holda sodir etiladi. Bu yerda to'g'ri kvalifikatsiya qilish qoidasi quyidagicha:

- Agar shaxs boshqa bir fuqaroning plastik kartasini o'g'irlab, undagi pulni bankomat orqali yashirincha yechib olsa, bu қилмиш — O'g'rilik (JK 169-modda) deb baholanadi.
- Agar shaxs jabrlanuvchini qo'ng'iroq orqali aldab, uning roziligi va o'z qo'li bilan kodni aytishi orqali pulni o'tkazib olsa, bu — Firibgarlik (JK 168-modda "p" bandi — axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik) deb malakalanadi.

Agar kiberfiribgarlik jarayonida davlat organlarining soxta veb-saytlari yaratilsa yoki kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirilsa, qilmish JKning 168-moddasi va JKning 278-1-moddasi (Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda foydalanish) majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim [4].



Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bugungi raqamlashtirish davrida firibgarlik jinoyati o'zining an'anaviy shaklidan virtual va kiber makonga shiddat bilan ko'chmoqda. Kiberfiribgarlikni iqtisodiyot sohasidagi boshqa jinoyatlardan ajratuvchi asosiy jihat — bu jinoyatda jabrlanuvchining jismoniy ishtirokisiz, texnik vositalar yordamida masofadan turib moddiy zarar yetkazilishidir.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu jinoyatga qarshi kurashish faqatgina huquq-tartibot idoralarining vazifasi bo'lib qolmasdan, balki bank-moliya institutlari, kibexavfsizlik markazlari va aholining raqamli savodxonligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Kelgusida Jinoyat kodeksida raqamli mulk va kiber-identifikatsiya tushunchalarini yanada aniqroq qonuniy mustahkamlab qo'yish, ushbu turdagi jinoyatlarning barvaqt oldini olishda muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
- 2.Axborot xavfsizligi va kiberjinoyatchilik muammolari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 45-48.
- 3.Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat huquqi kursi. III tom. O'zgalar mulkini talon-toroj qilish. – Toshkent: ILM ZIYO, 2021.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Firibgarlik bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.

